

MUTAXASSIS RIVOJLANISHIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNING O'RNI VA ROLI

Fayzullayev Abror Faxriddin o'g'li

qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

+99894-658-33-59

abrorfayzullayev551@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7450708>

Annotatsiya. Pedagogik psixologiyani o'quvchi talabaga ta'sir darajasi, pedagogik texnologiya ahamiyati, kasbiy ta'lim metodlari turlari, amaliy va nazariy dars mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish bo'yicha tadqiqot ishlari va chet-el olimlarining fikri va mulohazalari o'rganib chiqilib amalga oshirilgan ishlar tahlili bo'yicha qo'shimcha taklif va tavsiyalar keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy kompetensiya, pedagogik texnologiya, ta'lim metodlari, pedagogik mahorat, amaliy mashg'ulotlar, ijodiy ko'nikma, texnologik vositalar, sifat ko'rsatkichlari.

МЕСТО И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В РАЗВИТИИ СПЕЦИАЛИСТА

Аннотация. Уровень воздействия на студента изучения педагогической психологии, значение педагогической технологии, виды методов профессионального образования, исследования по правильной организации практических и теоретических занятий, а также дополнительные предложения и рекомендации по анализу проведенной работы изучение мнений и замечаний зарубежных ученых.

Ключевые слова: Профессиональная компетентность, педагогическая технология, методы обучения, педагогическое мастерство, практическое обучение, творческие способности, технологические средства, качественные показатели.

THE PLACE AND ROLE OF PROFESSIONAL COMPETENCIES IN THE DEVELOPMENT OF A SPECIALIST

Abstract. Additional suggestions and recommendations were made on the level of influence on the student studying pedagogical psychology, the importance of pedagogical technology, types of professional education methods, research on the proper organization of practical and theoretical lessons, and the analysis of the works carried out after studying the opinions and comments of foreign scientists.

Key words: Professional competence, pedagogical technology, educational methods, pedagogical skills, practical training, creative skills, technological tools, quality indicators.

Pedagogik psixologiyaning o'quvchi-talabalarga ta'sir darajasi. Pedagogik psixologiyani XX asr boshlarida rivojlangan Yevropa mamlakatlari ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari tadqiq etishgan va ma'lum bir natijalarga erishishgan. Ularning fikricha o'quv-mashg'uloti davomida o'qituvchilar o'quvchilarni ilmiy salohiyati(o'zlashtirish ko'rsatkichi)ni hisobga olib, dars mashg'ulotlarini tashkil etishlari lozimligini va bu orqali talaba-o'quvchilar o'zlariga kerakli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari ta'kidlangan.¹ Shuningdek har bir nazariy dars soatlaridan so'ng, shu maktab yoki boshqa ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulotlarni

¹ Gabriela Cristea "The Psychological pedagogy paradigm", Published by Elsevier Ltd- University Bucharest: "Romania", 2012 y

o'tkazilishi va bu orqali talabalar muayyan bilim doirasini mukammal ravishda o'zlashtirishlari ko'rsatilib o'tilgan. O'tgan yillar sarhisobini oladigan bo'sak, o'quv jarayonlari ko'pincha ma'ruza va seminar mashg'ulotlariga qaratilgan edi. Hozirgi kelib esa zamoniviy o'qitish modellari yaratilina boshlandi ya'ni ta'limga tadqiqot qilish, o'qituvchi va talaba munosabatlarini tartibga solish, dars jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, talaba sonini meyorlashtirish orqali sifat ko'rsatkichiga erishilini kelinmoqda.

Har bir pedagog muayyan sifatga erishish uchun dastlab ta'limda muayyan tajribaga ega bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida pedagogda ta'lim muhitini bevosita his qilishi, muayyan talabalarga o'zgacha yondashuvni o'zida shakllantirishda bevosita yordam beradi. Tajribali pedagog birinchidan, o'ziga yuklatilgan predmet yuzasidan mukammal bilimga ega bo'lishligi ikkinchidan, har bir o'quv mashg'uloti davomida ilg'or texnologiyalarni foydalana olishi bu o'quvchi talabani o'zlashtirish ko'rsatkichi yaxshilanishiga bevosita xizmat qiladi.

Psixofiziologik tabiatni takomillashtirish uchun o'qituvchi o'zining jismoniy (organizm tuzilishi, ovqatlanish, dam olish, ish rejasi, gigiyena va h.k.), oliy nerv tizimi (mijoz, tafakkur, diqqat, iroda, idrok, xotira va h.k.), nerv tizimi jarayonlari (ishchanlik, faollik, irodalilik va h.k.) va ularning tiplari (badiiy fikrlovchi, o'rtacha va h.k.)ni aniqlashi, o'stirishi, rivojlantirishi lozim bo'ladi. Psixik (ruhiy) jarayonlar va ularni rivojlantirish (tafakkur-tahlil va umumlashtirish, mimika, pantomimika - hissiyot, o'zini nazorat qilish va boshqalarni o'rganish). "O'z-o'ziga ta'limning ikkinchi tomoni bu pedagogik mahoratni oshirish jarayoni uning tamoyillari orqali o'zini tarbiyalash (loyihalash, kommunikativ, perspektivlik, tashkilotchilik va h.k.) Shaxsiy-ijtimoiy sifatlarini shakllantirish-takomillashtirish esa (fuqarolik, insoniylik, madaniyatlilik, intellektuallik, motivlilik, g'oyaviylik, pedagogik takt va taktika va h.k.) biologik, psixologik, metodik talablar bilan hamkorlikda olib boriladi. Nafosatlilik esa o'qituvchidan go'zallikni his qilish hamma joyda nafosatli bo'lishni (munosabatda, ishda, muloqotda, nutqda, va h.k.) talab etadi. "O'z-o'ziga ta'lim" jarayoni "o'z-o'zini tarbiyalash" bilan uug'unlashib ketadi va u quyidagi tartibda olib boriladi:

Oliyog'ha va undan keyingi ta'lim jarayonida: 1.Kasb ta'limini to'liq egallash. 2.Pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini chuqur o'rganish. 3.Darslik, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish. 4.Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish. 5.Yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish (komputer, modem, proyektor, internet va h.k.). 6.pedagogik tajriba va texnologiyalardan foydalanish. 7.Diagnostika, korreksiya va rivojlantiruvchi mashqlarni o'rganish, o'zini tarbiyalashda keng foydalanish. 8.O'z faoliyati natijalari monitoringini o'tkazishni bilish va uni tahlil qilish

Pedagogik texnologiya ahamiyati, kasbiy ta'lim metodlari turlari. Har bir fanni o'qitishda zamonaviy tan olingan ta'lim uslublari, metodlari qo'llaniladi. Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini optimallashtirishdir. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o'quvchi yoki talabalarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya, o'z navbatida, ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari va diagnostik maqsadlari asosida o'quv jarayonlari, ta'lim tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir, ya'ni fan va texnika yangiliklarini o'zida mujassamlashtiradigan o'quv jarayonidir.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasini quyidagicha izohlash mumkin:

Metod: Og'zaki bayon qilish, slaydlar asosidagi kichik guruhlarda ishlash, taqdimot, "Tushunchalar, abbreviaturalar, lug'atlar tahlili" uslubi.

Forma: savol-javob, individual ishlash, kichik guruhlarda ishlash, jamoa miqyosida ishlash.

Vositalar (texnik va didaktik): tarqatma materiallar, slayd ko'rinishidagi qog'ozlar, ma'ruzalarni prezentatsiya asosida, markerlar, skoch, doska, kompyuter-proyektor va lazer.

Nazorat: Og'zaki-yozma nazorat, self-nazorat, savol-javob.

Shuningdek, Jahon tajribasi hozirda juda ko'p tan olingan, ma'qul deb topilgan metodlar quyidagilar: eksperiment, kuzatish (observing), suhbat, adabiyotlar bilan ishlash, o'quvchilar ijodini o'rganish, test, (anonim yoki ochiq) so'rovnoma o'tkazish, o'quvchi-talaba ijodini o'rganish, test, tahlil-qiyoslash,² mavzu doirasida o'yinlar o'tkazish. Bundan maqsad o'quvchi-talabalarni egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko'lamini kengaytirib mukammal bilim egallashidir.


Bu maqsadga erishishda to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar uchraydi, va ularni oldini olish uchun quyidagicha talablar uchraydi:

- didaktik talablar (o'zlashtirganlik darajasi, o'quv mazmuni mohiyatiga daxldor);
- ilmiy metodologik talablar;
- pedagogik-psixologik talablar;
- estetik talablar;
- gigienik talablar.

Amaliy va nazariy mashg'ulotlarning asosiy maqsadi – biror bir fanga, mavzuga daxldor holat, muammoni ilmiy ko'nikmalarga tayanib ochib berish, o'quvchilarning o'rganilayotgan qonuniyatlarini o'ziga xosliklari va nomoyon bo'lish shakllarini chuqur tushunishlarini ta'minlash, bo'lajak mutaxassislarda o'rganilayotgan, tadqiq etilayotgan obyekt bilan amaliy muloqotga kirishish ko'nikmasini shakllantirishdir.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarning mohiyati: Har bir fanni predmetini o'rganishda obyektiv holatni anglagan holda dastlab nazariy, keyinchalik amaliy soatlar ajratiladi (ko'pincha). Ularni ahamiyati: **Nazariy dars soati** – rejali tashkillashtirilgan, aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan, turli xil metodlar-zamonaviy texnik vositalar yordamida o'tiladigan ta'lim va tarbiya jarayonidir. Bunda ma'lum bir soha bo'yicha nazariy bilimlar tizimli ravishda bilim oluvchilarga yetkaziladi. Ta'lim beruvchi nazariy bilimlarni amaliy qo'llash yo'llari bilan tanishtiradi. **Amaliy mashg'ulot** – aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarilib turiladigan, o'rganuvchi tomonidan amaliy bajariladigan topshiriq-vazifalar majmuyidir. Amaliy mashg'ulot ta'lim jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, u o'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda, o'quv paligonlarida ish o'rnida joylashgan real vositalardan foydalangan holda o'tkaziladi.

² O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Toshkent Farmasevtika universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasini, A.S.Kaldibekova, D.O.Kamalova, "Kasbiy ta'lim metodikasi", -Toshkent.-2020 y



Har bir nazariy-amaliy dars mashg'ulotlari tugab, yangi o'quv soati boshlanganda o'tilgan har bir dars mashg'ulotlarini tizimli ravishda takrorlash maqsadga muvofiqdir. Agarda amaliy holatlarda birorta harakat yoki holatni qayta amalga oshirish orqali mashg'ulot bilvosita o'zlashtiriladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi fan-ta'lim rivojlanayotgan va raqobatlashayotgan bir davrda ta'limni, kadrlar malakasini oshirish, ta'lim turli xil to'siqlardan bartaraf etish, o'quvchi-talabalarga tadqiqot qilishlari uchun imkoniyat yaratish davlat siyosati darajasiga chiqib ulgurgan.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ta'limga texnologik yondashuvni talab etadi. Bunda bevosita ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, zamonaviy kadrlar uchun o'qituvchi-murabbiylarni tayyorgarlik darajasi, o'quvchilarni amaliy darsga qay darajada tayyorgarligini o'rganish, zamonaviy texnik vositalar asosida metodlardan foydalanganlik darajasi muhimdir. Bu o'rinda har bir o'tilgan dars soati

uchun tahliliy guruh ishlashi maqsadga muvofiqdir, negaki ushbu xulosa talabani malakali bo'lib, chiqishiga muayyan holatda raqobatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimiga Yevropani tan olingangan o'qitish metodlarini joriy qilish zarurdir, ya'ni muayyan predmet uchun talabadan ijodiy-tahliliy ish talab qilinishidir. Bunda talaba-mutaxassis o'zida kreativlik va o'rganilayotgan predmetni yangi qirralarini o'zida kashf qilishga harakat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 1992.
 2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 2020.
 3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
 4. "Taraqqiyot Strategiyasi: xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur". – Toshkent: O'zbekiston, 2022-2026 yy.
 5. Azizxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2003.
- Internet manbalari
6. <http://www.lex.uz>
 7. <http://www.gov.uz>
 8. <http://solliq.uz>